

11. Bekmurodov Baxtiyor, & Zokirov Ulug`bek. (2024). Raqamli moliyaviy texnologiyalarning boshqaruvdagi roli va uning O'zbekiston uchun ahamiyati. SYNAPSES: INSIGHTS ACROSS THE DISCIPLINES, 1(4), 79–85. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14062978>

12. Jumaniyozovich, Q. S. (2024). KIBERXAVFSIZLIKNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. «НАДЕЖДА НАЦИИ» МЕЖДУНАРОДНОГО НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОГО КОНКУРС, 1(1).

13. Uzaqov, J. N. (2024). Mintaqa ziyorat turizm salohiyatini oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH, 1(3), 45-53.

14. Jumaniyozovich, Q. S. (2024). AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI QISHLOQ HUDUDLARIDA ISH O`RINLARI YARATISH. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 1(4), 83-89.

15. Jumaniyozovich, Qulmurotov Sohibjon. "THE DEVELOPMENT OF BEEKEEPING IN THE REGION AND ITS IMPORTANCE." *European Journal of Interdisciplinary Research and Development* 25 (2024): 111-11.

16. Uzaqov, J. N. (2024). Mintaqa ziyorat turizm salohiyatini oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH, 1(3), 45-53.

17. Uzaqov, J. N., & Jumanazarov, K. S. (2024, August). MINTAQADA ZIYORAT TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISH MEXANIZMINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 7, pp. 23-33).

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY STRATEGIK BOSHQARUV G‘OYALARI.

Madaminova Kumush Ortiqjon qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Biznesni boshqarish 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ishlab chiqarish korxonalarining strategik boshqaruvini takomillashtirish, unga ta'sir qiluvchi omillar, korxonalarining raqobatbardoshlikni oshirishning eng samarali usullaridan biri strategik

boshqaruvining ijobiy tomonlari hamda boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *strategik boshqaruv, korxona faoliyati, Ishlab chiqarish quvvati, raqobatbardoshlik, trend, boshqaruvni takomillashtirish, ichki va tashqi omillar, innovatsiya, integral ko'rsatkich, strategiya, baholash, korxona barqarorligi.*

Abstract: *This article highlights the issues of improving the strategic management of production enterprises, the factors affecting it, the positive aspects of strategic management, one of the most effective methods of increasing the competitiveness of enterprises, and the improvement of the organizational and economic mechanisms of management.*

Key words: *strategic management, enterprise activity, Production capacity, competitiveness, trend, management improvement, internal and external factors, innovation, integrated indicator, strategy, assessment, enterprise stability.*

XX asrning 90-yillari boshidan boshlab raqobat sharoitida o'ziga xos tavsifga ega holda korxonaning ustunligini aniqlash uchun oldingilariga solishtirilganda hamda amaliy mexanizmlar va manbalarni tadqiq qilish uchun ko'proq mos keladigan strategik boshqaruv sohasida korxonaning rivojlanishida resurs konsepsiyasi ustunlik qila boshlaydi. Korxona rivojlanishining strategik boshqaruvning tarafdorlari Dj.Barni, B.Vernerfelt, Dj.Grant, K.Kurt, G.Minsberg, K.Praxalad, D.Tis, G.Xemellar hisoblaniladi (Arnawa & other, 2019). Fikrimizcha, har qanday korxona ichki resurslardan foydalanishda rejalashtirish usullarini qo'llash qobiliyati va imkoniyatiga ega bo'lib, talabga hamda raqobatchilar, ta'minotchilar faoliyatiga va ma'lum darajada sanoat standartlari ta'sir etuvchi noyob va o'ziga xos qobiliyatlarini sun'iy ravishda shakllantiradi. Sotish yoki xizmatni tashkil etish, boshqarish uchun texnologiya, brend, ishlab chiqilgan tizim va xodimlarning professionallik darajasini bu kabi noyob resurslar sirasiga mumkin (Weeks and Plessis, 2011). XX asrning 60-80 yillarida g'arbda zamonaviy menejment rivojlana boshladi. Sanoat korxonalarida strategik boshqaruvning yondashuvlari mohiyati ochib berilgan va modellarining ajralib turadigan jihatlari asoslangan. Istalgan modelda strategik boshqaruvni uch bosqichdagi jarayoni ajratiladi: strategik rejalashtirish bosqichi (strategiyalar ishlab chiqish, strategik tahlil va tanlov); strategik tashkillashtirish bosqichi yoki tanlash strategiyaga mos ravishda tashkiliy tizimni sozlash (strategiyani tatbiq etish, amalga oshirish); strategik nazorat va tartibga solish bosqichi (strategiyani baholash, ishontirish va ijroni baholash). Bizning fikrimizcha, mavjud xarajat modellari orasida ishlab chiqarish korxonasining tashqi va ichki muhit omillarining butun majmuini hisobga olishga to'la imkon beruvchi hech qanday

model yo‘q, ammo qayd etilgan kamchiliklarga qaramay, ulardan eng samaralisi – iqtisodiy qo‘shilgan qiymat modeli bo‘lib, uni takomillashtirish talab etiladi. Bu jarayonda esa, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng qo‘llanilayotgan korxona faoliyati samaradorligini boshqarish usullaridan foydalanish zarur bo‘ladi. Raqobat ustunligi birinchi o‘rinda turgan bir paytda, strategiya kompaniyaning uzoq muddatli istiqbolini kafolatlash uchun raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lish niyatida o‘z resurslari va ko‘nikmalari bilan o‘z strategik maqsadlariga erishishga harakat qiladigan vositalar va asosiy funktsiyalar sifatida belgilanadi. Raqobat ustunligini qo‘lga kiritadigan va uni saqlab turadigan tashkilot, uni raqobatchilardan ajratib turadigan strategiyani yaratish va amalga oshirish orqali mumkin bo‘ladi. Strategiyani korxonaga ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yetkazib berish usuli sifatida ko‘rib chiqish kerak degan fikr va mulohazalarni keltirib o‘tishgan.

Ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirishda zamonaviy strategik boshqaruv g‘oyalari bir necha asosiy tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillar korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, resurslarni samarali taqsimlash, innovatsiyalarni joriy etish va uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta‘minlashga qaratilgan. Quyida zamonaviy strategik boshqaruv g‘oyalarining ba‘zi asosiy yo‘nalishlari keltirilgan:

1. Raqobatbardoshlikni oshirish.

2. Innovatsion boshqaruv.
3. Barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas‘uliyat.
4. Globalizatsiya va bozorni kengaytirish.
5. Xodimlarni boshqarish va tashkilot madaniyati.
6. Risklarni boshqarish.
7. Zamonaviy boshqaruv tizimlari va ma‘lumotlar tahlili.

Zamonaviy strategik boshqaruv g‘oyalari ishlab chiqarish korxonalariga o‘z resurslarini optimal boshqarish, innovatsiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash imkonini beradi. Hozirgi kunda har bir sohani tog‘ri boshqarishda strategik menejmentning ahamiyati katta. Uning asosiy vazifalaridan biri korxonani rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishdir. Korxonada byudjet tizimini ishlab chiqish uchun kompaniya ichidagi rejalarni ya‘ni strategik reja, o‘rta muddatli va taktik rejalarni amalga oshirishi kerak. Hozirda korxonalar amaliyotida strategik boshqarishning dolzarbligi ortib bormoqda. Albatta, bu jarayon ularning vakolatini kengayishi hamda korxonaning iqtisodiy ahvoli uchun javobgarlikning oshganligi bilan bog‘liqdir. Shuni alohidata‘kidlash kerakki, 2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi davlat tomonidan dolzarb masalalardan etib belgilangan .Strategiya ilg‘or xorijiy tajribani, shu jumladan, iqtisodiy hamkorlik

va taraqqiyot tashkilotining davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv bo'yicha tamoyillarini hisobga olgan holda, davlat ulushi mavjud bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalarini boshqarish va isloh qilishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Zamonaviy boshqarishning sifati korxonalar samaradorligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu sababdan korxonalarga eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish bugungi kundagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Har qanday korxonaning uzoq muddatli yutuqlari ishlab chiqilgan strategiyaga bog'liq bo'ladi. Agar korxonaning rivojlanish strategiyasi bo'lmasa u yoki bu xatoliklar bilan ishlab chiqilgan bo'lsa, bu hol korxonaga bozorda barqaror va mustahkam o'rin egallash uchun imkon bermaydi. Zamonaviy ilm-fan va amaliyot strategik rejalashtirish hamda boshqarishning katta tajribasiga ega, ammo ko'pgina strategiyalar haligacha tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan shart-sharoitlariga moslasha olmayapti. Bu hali hanuzgacha strategik boshqarishning barcha muammolari ham o'z yechimini topmaganligini ko'rsatadi, bunday hol, birinchi navbatda, korxona rivojlanishi strategik barqarorligining mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq.

Korxonalarning strategik boshqaruvini rivojlantirish bo'yicha juda ko'plab xorijiy hamda mahalliy olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borishgan. Jumladan, xorij olimlaridan R.S.Kaplan, D.P.Norton asarlarida strategik boshqaruv tizimida korxonaning samaradorligini oshirish va iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari keng ko'rib chiqilgan. Ushbu olimlarning asosiy qarashlari strategik boshqaruv tizimini korxona va tashkilot uchun asosiy xususiyatlarini, uning samaradorlik ko'rsatkichini baholashga qaratilgan. I. Ansoffning qarashlarida strategik boshqaruv tizimida korxonaning istiqbollari o'rganish va ularga ta'sir qiluvchi omillarni baholash muhim o'rin tutadi. Uning e'tiborida korxona doim risk bilan ishlashi, uning uzoq muddatli faoliyati uchun prognozlar tuzish, ekstrapolyatsiya usulini qo'llash zarur. M. Porter qarashlarida kompaniyalarning rivojlanishida innovatsiyalarning o'рни, ularni qo'llash xususiyatlari, kompaniyaning barqaror rivojlantirilishiga faqat innovatsiyalarni doimiy ravishda joriy etish hamda kompaniyalarning raqobat ustunligiga erishishlarida innovatsiyaning ta'sir masalalari tadqiq etilgan. Mahalliy olimlardan, R.S. Muratov, I.A. Djalolova, S.Sh. Oripov qarashlarida esa korxona alohida obyekt sifatida qaralib, uning mazmun va mohiyati, unga qo'yiladigan talablar, ko'rsatkichlar tizimi, moliyaviy barqarorligi va boshqaruvi masalalari atroflicha yoritib berilgan. Korxonalar boshqaruvi va ularga qo'yiladigan talablar, tamoyillar, boshqaruv shakllari baholab berilgan.

Strategiyaning maqsadi davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish tizimini isloh qilish, raqobatbardosh bozor sharoitida ularning faoliyatini takomillashtirish

va tijoratlashtirish hamda davlat tomonidan har bir korxonaga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarishda ularning samaradorligini oshirishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagilar Strategiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- iqtisodiy o'sish uchun barqaror shart-sharoitlarni ta'minlash manfaatlarini ko'zlagan holda, davlat ishtirokidagi korxonalar tarkibi va tuzilmasini optimallashtirish;

- korxonalarning (ulardagi ulushlarning) davlat mulkida bo'lishi yoki saqlanishining mezonlarini (asoslarini) belgilash;

- davlat ishtirokidagi korxonalarga nisbatan maqsadlarni belgilash bo'yicha talablarni o'rnatish;

- davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirish, shu jumladan, boshqaruvning uzoq va qisqa muddatli maqsadlari va vazifalarini belgilash hisobidan ularning raqobatbardoshligi hamda investitsion jozibadorligini, korporativ boshqaruv darajasi va axborot shaffofligini oshirish.

Strategiya aniqlik, shaffoflik, manfaatlar muvozanatini ta'minlash, nazoratning uzluksizligi va loyihaviy yondashuv tamoyillariga asoslanadi. Aniqlik tamoyili har bir davlat ishtirokidagi korxonaga nisbatan maqsadni shakllantirish va belgilashni, unga erishish usullarini, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tartibini, hisobotni va boshqa boshqaruv mexanizmlarini tavsiflaydi. Shaffoflik tamoyili davlat ishtirokidagi korxonalar va ularda davlat nomidan mulkdor (aksiyador, ishtirokchi, muassis) funksiyasini amalga oshirayotgan davlat organlari haqidagi ma'lumotlarning ochiqqligi, mavjudligi va oshkoraligini, korxonalar haqidagi ma'lumotlarni aniqlash va hisobini yuritishni, shu jumladan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini amalga oshirish orqali ta'minlaydi.

Korxonaning tashqi omillariga quyidagilar kiradi: iqtisodiyot sohasida davlatning inqirozga qarshi qaratilgan siyosati; mamlakatdagi demografik vaziyat; siyosiy barqarorlik; fan va texnikaning taraqqiyoti; transport infratuzilmasini rivojlanganligi. Ichki omillar korxonaning ichki muhitida, uning kichik tizimlarida (xodimlar, ishlab chiqarish, marketing, sotish, moliya, tashkiliy tuzilma) shakllanadi. Ichki omillarni boshqarish korxonaga barqarorlikni mustahkamlashning rezervlarini aniqlash va tashqi omillar o'zgargan taqdirda, ishlab chiqarishni tezkor ravishda boshqarish imkonini beradi. Korxonaning tizimli rivojlanishi markazlashtirishdan nomarkazlashtirish-gacha bo'lgan bosqichlarni birin-ketinlik bilan bosib o'tish orqali amalga oshiriladi. Bu shuni anglatadiki, korxonaning har bir elementi rejalashtirilganlik, tashkillashtirilganlik xususiyatiga ega bo'lib boradi. Mohiyatiga ko'ra, korxona tomonidan boshqarishning nomarkazlashtirilgan sxemasiga o'tish obyektga, uni boshqa holatga o'tkazish uchun maqsadga yo'naltirilgan tashqi ta'sir sifatidagi boshqaruv tizimini ham o'zgartiradi. Noma'lum bo'lgan tashqi muhit sharoitida korxona

elementlarini mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish darajasigacha rivojlantirish - korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlashning zaruratidir. Boshqa tomondan, korxona tashqi muhitdagi yaxlitlik sifatida, maqsadga yo'naltirilgan rivojlanish sifatida muayyan belgilarga ega bo'lishi kerak. Ularning asosiysi - boshqariluvchanlikdir.

Xulosa: Xulosa o'rinda aytish mumkinki, korxonani boshqarishda samaradorlikka erishish uchun, avvalo, boshqaruvning maqsadlari, shuningdek, vositalari va unga erishish usullarini aniq belgilab olish zarur. Yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni eng kam xarajatlar asosida ishlab chiqarish eng ko'p daromad olishni ta'minlab, inqirozga uchrashdan saqlaydi hamda har bir korxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Boshqaruvning barcha vazifalari ushbu maqsad amalga oshishiga xizmat qilishi lozim. Boshqaruvning samaradorligiga ko'p jihatdan korxona oldiga qo'yilgan maqsadlar va bajariluvchi vazifalarning o'zaro munosabatlari yordamida erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xo'djamuratova G.Y. Strategik boshqarish. Darslik. -T.: "Iqtisodiyot", 2019. - 177 b.
2. Muratov R.S., Djalolova I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Darslik-Toshkent, 2014- 35-b.
3. Kaplan, R.S. and Norton, D.P. (1996) Strategic Learning: The Balanced Scorecard. Strategy & Leadership, 24, 18-24. <https://doi.org/10.1108/eb054566>.
4. Weeks and J. Du Plessis, (2011) "Servitization: Developing a business model to translate corporate strategy into strategic projects," in PICMET: Portland International Center for Management of Engineering and Technology, Proceedings.